

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11174471>

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNING O'YIN KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Ramozonova Bahoroy Sadriddinovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
"Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrasida o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning o'yin kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari, maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida o'yin faoliyatini ahamiyati hamda o'yin faoliyatining bola psixologiyasiga ta'siri haqida so'z yuritiladi.

***Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim tashkiloti, o'yin faoliyati, o'yin turkumlari, pedagogik-psixologik o'yin sifatlari, idrokni rivojlantiruvchi o'yinlar.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассмотрены педагогические и психологические особенности развития игровой компетентности детей в дошкольных образовательных организациях, значение игровой деятельности в развитии дошкольников, а также влияние игровой деятельности на детскую психологию.

ABSTRACT

This article describes the pedagogical and psychological features of developing children's play competence in preschool educational organizations, the importance of play activities in the development of preschool children, and the impact of play activities on child psychology.

Maktabgacha ta'limni rivojlantirish, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning sifatli ta'lim–tarbiya olishlariga erishish, bolalarni kundalik faoliyatlarini mazmunli qiziqarli tashkil etish, ularning qiziqishlarini qobiliyatlarini aniqlash va shuni inobatga olib ma'lum sohaga yo'naltirish, ta'lim va tarbiya jarayonini bolalar va jamiyat ehtiyojlariga javob beradigan darajaga olib kelishni ko'zda tutmoqda. Yosh avlodni talim-tarbiyasini asosiy va boshlang'ich bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimida bo'layotgan ko'plab yangiliklar, o'zgarishlarning barchasi maktabgacha yoshdagi bolalarning qiziqishi, iqtidori, individual jismoniy va ruhiy xususiyatlari, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda hamda bolalarning ma'naviy me'yorlarining shakllanishi, hayotiy va ijtimoiy tajriba egallashini ko'zda tutgan har tamonlama rivojlanishlari uchun quyilgan mustahkam poydevorni yaratmoqda. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar shaxsiyatidagi asosiy psixologik o'zgarishlar aynan o'yin faoliyatida sodir bo'ladi. Psixologiya va pedagogikada ular quyidagi sifatlarda talqin qilinadi:

- Shaxsning atrof-muhitga munosabati - bolaning ijobiy ijtimoiylashuviga ko'maklashadi, o'yinda improvizatsiya qilsa, timsollar, vaziyatlarni o'ylab topsa va shu tariqa atrof-olam haqida yana ham ko'p ma'lumotlarni olsa bo'ladi;

- bolalarning sub'yektiv faoliyati sifatida o'zgaradigan va avj oladigan alohida faoliyati bo'lib quvonch bag'ishlaydi,

- bolaga ijtimoiy berilgan va u tomonidan o'zlashtirilgan faoliyat turi atrof-muhitga munosabati va bolalarga jamiyatdagi o'z o'rnini tushunish, o'ziga bo'lgan ishonchsizlikni kamaytirishga yordam beradi.

- o'zlashtirishning alohida mazmuni, ijtimoiy xulq-atvorning dastlabki ko'nikmalarini egallashga imkon beradi:

- bola ruhiyatining rivojlanishda ro'y beradigan faoliyat turi bo'ib ruhiy (psixik) jarayonlarni shakllantiradi: xotira, diqqat, tasavvur, nutq va h.k;

- butun bolalar hayoti va bolalar jamoasini tashkil etishning alohida ijtimoiy-pedagogik shakli.

Tarbiyachi pedagog o'yinlarga rahbarlik qilar ekan, bolalar shaxsining hamma tamonlariga: ongi his-tuyg'ulari, irodasiga, hulqiga ta'sir etuvchi va bunda bolalarga aqliy, axloqiy, estetik va jismoniy tomondan tarbiyalashda foydalanish lozim. Bu jarayonda esa bolalarning bilimlari, tajribasi va tasavvurlari boyib chuqurlashib boradi. Bolalar o'yinda u yoki bu rolni bajarayotib o'z diqqatini butun o'yinga qaratishni o'rganib boradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarda o'yin kompetensiyasini rivojlantirishda turli maqsadlarda o'yinlardan foydalanish ahamiyatlidir. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash va psixik jarayonlarini rivojlantirish uchun o'yinlarni qiyosan bir necha guruhlarga ajratish mumkin. O'yinlarning quyidagi alohida turkumlari bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashga yordam beradi¹:

- Idrokni o'stirishga qaratilgan o'yinlar;
- Diqqatni rivojlantirishga qaratilgan o'yinlar;
- Xotirani o'stirishga qaratilgan o'yinlar;
- Tafakkurni o'stirishga qaratilgan o'yinlar;
- Maktabga tayyorlashga yordam beradigan o'yinlar

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni idrokini rivojlantirishga qaratilgan o'yinlarda ob'ektlarning turli xil xususiyatlari- rangi, shakli, hajmi, vazni, ularni bir-biriga bog'liqligi, o'xshashliklarini topishga doir topshiriqlar berish bilan bolaning shaxsiyatini to'liq shakllantirish uchun muhim shartdir. Bu jarayon murakkab va ko'p qirrali bo'lib maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yin faoliyatlarida shakllanib borish muhimdir.

¹ Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda noan'anaviy o'yinlardan foydalanish Toshkent-2004 yil. 3-4-betlar

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 12-apreldagi PQ-5071-sonli “Maktabgacha ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”Qarori.
2. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr/ Toshkent-2022-yil
3. Sadriddinovna, R. B. (2022). TECHNOLOGIES FOR INCREASING OF STUDENTS’LEARNING COMPETENCIES IN THE COURSE OF PEDAGOGICAL PRACTICE. *Confrencea*, 6(6), 226-227.
4. Ergasheva, B. ., Maxmudova, D. ., & Bahoroy, R. . (2023). TECHNOLOGIES OF PREPARING FUTURE TEACHERS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY ON THE BASE OF A COMPETENT APPROACH. *Modern Science and Research*, 2(10), 118–122.
4. Ramozonova , B. S., Maxmudova , D. A., & Ergasheva , B. Z. qizi. (2023). MALAKAVIY O‘QUV AMALIYOTIDA BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI. *GOLDEN BRAIN*, 1(31), 52–56.
5. Sadriddinovna, R. B. (2022). TECHNOLOGIES FOR INCREASING OF STUDENTS’LEARNING COMPETENCIES IN THE COURSE OF PEDAGOGICAL PRACTICE. *Confrencea*, 6(6), 226-227.